

TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Raxmatullayeva Laylo A'zam qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim tizimining shakllanishi va uning qonun bilan mustahkamlanishi, keying yillarda unda olib borilgan islohotlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ajdodlar merosi, Milliy ma'naviy ruhni yangilash, Oliy ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, boshlang'ich ta'lim, Ta'lim to'g'risidagi davlat qonunlari.*

O'rta Osiyo, xususan, yurtimiz azal-azaldan ilm-marifat o'chog'i jahon sivilizatsiya yasi markazlaridan biri deb e'tirof etib kelingan. O'rta asrlardan xalqimiz ta'lim sohasida yuksak marralarga erishgan bo'lib, umumjahon madaniyatida o'z o'rniga ega xalq sifatida fan sohasiga ulkan hissa qo'shishgan. Misol tariqasida IX-XII asrlarda Movarounnahrda ko'plab o'quv maskanlari bo'lib, ulardan chinakam olimlar, ulamolar yetishib chiqqan. Xususan, Xorazm Ma'mun akademiyasi ham shu davrda yirik tadqiqot markazlaridan biri hisoblangan. Jumladan matematika faniga Algebra atamasini kiritgan Al-Xorazmiy ham bizning ajdodimiz ekanligi, azal-azaldan qonimizda yaratuvchanlik, o'qish, izlanishga bo'lgan qiziqishdan dalolatdir.

Bundan tashqari yana bir buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino o'sha o'lis XI- asrda hali fan-texnika inqilobi uyoqda tursin eng sodda tibbiy apparatlar bo'lmagan davrlarda murakkab dori-darmonlarni tayyorlab tibbiy jarrohlik muolajalarni amalga oshirgani bilan dunyoga mashhurdir. Uning "Tib qonunlari" asari Yevropada "Injil" kitobidan keyin eng ko'p nashr etilgan kitoblardan biri bolib 500 yil davomida dunyoning ko'plab nufuzli oliy o'quv yurtlarida barcha talabalar uchun darshlik sifatida qo'llanib kelingan.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim tizimini har tomonlama shaklan va mazmunan isloh qilish, yangilash lozim edi. Zero, jamiyat yangi shaxsni tarbiyalashni talab etayotgan bir paytda odamlarning ongi, dunyo qarashi, bilim saviyasini o'zgartirmay, uni zamonaviylashtirmay turib yangi jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillik yillarida ushbu jihatlarni inobatga olgan holda odamlarda yangicha, milliy qadriyat va an'analari-mizga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ta'lim va tarbiyaga juda katta e'tibor qaratganlar. Jumladan u: Ta'lim Ozbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi, Osib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda nomoyon boladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi. Yoshlar, ularning iqtidorliligi va bilim olishga chanqoqligidan ta'lim va ma'naviyatini tushunib yetish boshlanadi, Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29- Avgustda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib ushbu dastur "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan. Ta'lim to'g'risidagi so'nggi malumotlar keltirilishicha Ozbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-Sentyabr kuni "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahririni imzoladi deya xabar qildi adliya vazirligi matbuot xizmati. Mazkur hujjat 19-Mayda Oliy majlis qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilinib, 7-Avgustda Senat tomonidan ma'qullangan edi. Qonunga muvofiq ta'lim turlari quyidagilardan iborat. -Maktabgacha ta'lim va tarbiya: -Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim: -Professional ta'lim:

-Oliy ta'lim:

-Oliy ta'limdan keying talim:

-Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish:

-Maktabdan tashqari ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim 1-11 sinflarni o'z ichiga oladi. O'rta maxsus ta'lim akademik litsiyalarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi. Professional ta'lim boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratiladi. Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktab-larida 9-sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan asosida bepul amalga oshiriladi. O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilga- cha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. Orta maxsus professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. Qonunga ko'ra davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat in-spektsiyasi tomonidan beriladi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sis-chilari tomonidan amalga oshirila- di. Ushbu qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Eng samarali investetsiya bu ta'limga qilingan investetsiyadir. Chunki jamiyat taraqqiyotini, uning ertangi kunini yituk malakali kadrlar belgilab beradi.

Ta'lim tizimini takomillashtirish, ularning bilimini oshirish, sifat darajasini ko'tarishdir. Shu bois Prezident "Jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim" deya uqtirib, mamlakatimizda 2021-yilda o'qituvchi va pedagoglarga ustama

haq to'lash tizimi yo'lga qo'yilishini ta'kidladi. Bu tashabbus yaqin to'rt yildagi o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy nufuzi va mavqegini oshirish borasidagi amaliy faoliyat va harakatlarning izchil davomi deyish o'rindir.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga etdi. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga etdi. Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga etkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamini yanada kengaytirdi. Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtirilishi bo'ldi. Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шавкат Мирзиёев раислигида 2019 йил 23 август кунини халқ таълими тизимини ривожлантириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфусини оширишга бағишланган видеоселектор йиғилиши <https://www.xabar.uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-qanday>.

2. Сулаймон Амиркулович Хўдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). 666-671

3. Хайдаров С. (2020). Узбекистан тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган холда куллашнинг методик талаблари. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.
4. Хайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини уқитишга оид экологик муаммолар масаласи «Scientific Progress» *Scientific journal* 1(1). 12-17.
5. С.А. Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(9). 458-461.
6. Хайдаров Сулаймон Амиркулович. (2021). Узбекистон тарихи фанини уқитишда тасвирий санъат асарларидан фойдаланишнинг узига хослиги «Scientific Progress» *Scientific journal* 1(3). 9-14.
7. Sodirjonov M. M. On the coverage of ethnic processes in the information space // *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*. – 2020. – Т. 9. – №. 6. – С. 165-171.
8. Содирджонов М. М. Мониторинг вопросов исследования человеческого капитала в этносоциальных процессах и социальные тенденции // *Социальная политика и социальное партнерство*. – 2021. – №. 6. – С. 447-458.
14. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., & Xolmatova, M. A. (2022). ASALARICHILIK VA UNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 644-649.
15. Malika, U. (2023). Cerebral Ischemia in Patients with Atrial Fibrillation. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(1), 68-71.
16. Malika, U. (2023). Relationship between Heart Rate and Cerebral Circulation. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(1), 58-66.
17. Умарова, М., & Кодиржонов, Н. (2022). ТРОМБОЛИТИЧЕСКАЯ ТЕРАПИЯ В ЛЕЧЕНИИ ИШЕМИЧЕСКОГО ИНСУЛЬТА. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(5), 218-220.
18. Умарова, М. (2021). ИНСОМНИЯ ВА МЕТАБОЛИК СИНДРОМНИНГ ЎЗARO КОМОРБИДЛИГИ МУАММОНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. *Интернаука*, (20-7), 29-30.
19. Умарова, М. (2021). ИНСУЛТДАН КЕЙИНГИ ТАЛВАСА СИНДРОМИ. *Интернаука*, (18-5), 46-48.
20. УМАРОВА, М. МИГРЕН КАСАЛЛИГИ ВА УНИНГ ШОШИЛИНЧ ТЕРАПИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука"*, 93-94.
21. Махмудов, Н. И., Сайидалиев, С. С., & Каттаханова, Р. Ю. (2019). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ДИАГНОСТИКЕ ПОВРЕЖДЕНИЙ ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ У ДЕТЕЙ. In *Инновации в медицине. Материалы I международной научно-практической конференции-Махачкала, 2019.-Том. II.-232 с. (p. 37)*.